

DIZAYNERDA IJODKORLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISHI UCHUN TURLI IJOBIY TURTKI BO'LIHI MUMKIN BO'LGAN MAXSUS QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI TA'MINOTNI TO'LDIRISHDA PEDAGOGNING ROLI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7558512>

Rashidov Asamiddin Zayniddinovich

MRDI instituti Libos dizayni kafedrası dotsenti

a.rashidov3107@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, bilim olish jarayonidagi o'sishni saqlanishi va pedagoglarning faoliyati davomida nafaqat bilim berishi balki talabalarda ijodiy motivatsiyalarni ham shakllantirishi lozimligi ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, talabalarda ma'naviy rivojlanishni, kasbiy komillik zaruratini, vaziyatdan kelib chiqqan holda bilimlarni to'g'ri yo'naltirish lozimligini anglab olishlari va shaxsiy rivojlanishlari, kelajakdagi faoliyatida qo'llashi shaxsning o'ziga xos xususiyati ekanligini anglash mohiyati muallif tomonidan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ong, dizayn, shaxs, pedagogika, metod, rivojlanish

ABSTRACT

In the article, it is necessary to maintain growth in the learning process and in the activities of teachers, not only to provide knowledge, but also to form students' creative motivations. At the same time, the author determined the essence of students' understanding of spiritual development, the need for professional improvement, the need to correctly direct knowledge based on the situation, the realization that their personal development and application in future activities is a unique characteristic of a person.

Keywords: education, consciousness, design, personality, pedagogy, method, development

KIRISH

Ayni damda kasbiy fikrlash madaniyati eng samarali natijaga erishishda pedagogning eng muhim sifatidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi pedagog faoliyati jarayonida muammoli vaziyatlarni hal qilish, faoliyati mobaynida ijodkor talabalarni kasbiy rivojlanishi jarayonida fikrlash madaniyatiga uzviy bog'liq va katta iz qoldiradigan holatdir. Shuning uchun ham har bir pedagog, birinchi navbatda, o'z sohasining mutaxassisi bo'lishi kerak, chunki pedagogik faoliyatning asosi uning mukammal bilimidir. Ayniqsa mavzuni yetkazib berishi, amaliyot jarayonidagi

dolzarb muammolarni oson va to'g'ri hal qilishi va eng so'nggi ilm-fan yutuqlaridan foydalana olishi, Dizaynerda ijodkorlik xususiyatlarini rivojlanishi uchun katta zamin yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik faoliyatning ko'p funksiyaliligi uning uchta asosiy funksiyasida namoyon bo'ladi: talabalarga beriladigan ma'lumotlar ba'zasini to'g'ri tanlash, amalda tadbiiq etish va talabada bilim ko'nikmani shakllantirish, pedagogik tajriba, madaniy qadriyatlar asosida ma'lumotlarni uzatish. Bu funksiyalar pedagogning asosiy vazifasini to'liq bajarishini ta'minlaydi.

Siz sohada mukammal mutaxassis bo'lishingiz mumkin botanika, fizika yoki estetika, ilmiy kashfiyot qilish yoki dissertatsiya himoyasi, lekin ayni paytda yaxshi pedagog bo'lish uchun alohida mahorat kerak bo'ladi. Pedagogda yuqori professional tajriba mavjudligidan, maxsus bilim va muayyan faoliyatga ega bo'lish kompetensiyalari (bilimlarni talabalarga uzatish, o'rgatish qobiliyati, ongga ta'sir qilish, talabani uyg'otish o'z-o'zini rivojlantirish va boshqalar) alohida "hunar", mahorat va iste'dodni talab qiladigan pedagogik mahoratdir.

Amaliy dars ta'limining zamonaviy modernizatsiyada pedagoglarda tegishli fazilatlarini rivojlantirmasdan erishish mumkin emas. Bu esa uzluksiz kasbiy-pedagogik ta'lim jarayoniga alohida e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Pedagogning kasbiy fikrlash madaniyatining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish, tafakkurga o'rgatish yoki kasbiy fikrlash madaniyatini bevosita ta'lim jarayonida shakllantirish majbo'riyat sifatida emas, balki o'quv materialini kiritilgani kabi asosiy tavsiflovchi haqiqiy omil sifatida kiritilishi lozim.

XULOSA

Ta'lim tizimi o'sish jarayoni saqlanib qolishida, bir butunlik sifatida va har bir pedagogning alohida, dars olib borilishi sifati, bilimining haqiqatligi va daxlsizligi saqlansagina davom etishi ko'rsatilgan. Demak, bilim olish jarayonidagi o'sishni saqlash va pedagoglarning faoliyati davomida nafaqat bilim berishi balki talabalarda ijodiy motivatsiyalarni ham shakllantirishi lozim. Shu bilan birga, talabalarda ma'naviy rivojlanishni, kasbiy komillik zaruratini, vaziyatdan kelib chiqqan holda bilimlarni to'g'ri yo'naltirish lozimligini anglab olishlari va shaxsiy rivojlanishlari, kelajakdagi faoliyatida qo'llashi shaxsning o'ziga xos xususiyati ekanligini anglanishi lozim. Har qanday inson singari, pedagog ham o'z nuqtai nazariga ega. Ammo yangi avlodni hayotga tayyorlayotgan pedagog sifatida talabalarga "eski" poydevor qo'yish huquqiga ega emas. Sababi bu talabalarining yangi hayotga kirishini qiyinlashtiradi.

Kasbiy madaniyat, bilim, texnologiyalarning rivojlanishini hisobga olgan holda, o'qituvchining malakasi va kasbiy kompetensiyasi doimiy ravishda dinamik muvozanatda bo'lishi kerak, bu o'qituvchiga kasbiy fikrlash madaniyatining ochiqqligini ta'minlaydi.

REFERENCES.

1. INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: loyihalar uslubi – ta'lim sifatini oshiruvchi texnologiya sifatida, 2012.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.
3. Rashidov, A. Z. (2022). MODA FENOMENI: TARIXI VA RIVOJIGA DOIR AKTUAL TAMOYILLAR. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 4(3).
4. Zayniddinovich, R. A. (2022). The Study of Certain Types of Natural Fibers Determination of Their Properties by Organoleptic and Laboratory Methods. *Eurasian Research Bulletin*, 5, 1-5.
5. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
6. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). YOSH RASSOMNI O'QITISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 1(4).
7. Yunusxodjaeva, S. A. (2020). KASB TA'LIMI YO'NALISHIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA KASBIY BILIMNI CHUQUR O'ZLASHTIRGAN MUTAXASSISLARNI TARBIYALASH VA MILLIY LIBOSLARIMIZGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIK JIHATLARI. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 2(4).
8. Ernazarovna, U. G. (2022). THE FORMATION OF THE DESIGN TERM AND HISTORY OF DEVELOPMENT. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 96-102.
9. Nishanova, S. D. (2022). ZAMONAVIY PODIUMGA 80-YILLAR MODASINING QAYTIB KELISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 189-195..
10. UMAROVA, Z. KOSTYUM DIZAYNI TA'LIMINI MODERNIZATSIYALASHNING AKTUAL TAMOYILLARI. *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2020,[1/2] ISSN 2181-7324.